O‘zbekistonda chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi [1]

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun dastlabki ma’lumot


I. Chakana savdo tovar aylanmasi
II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
IV. Uslubiy tushuntirishlar
V. Aloqador boshqa havolalar

I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, chakana savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **93 517** tani tashkil etdi. Shundan yirik korxonalar soni **432** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni esa **93 085** tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra, O‘zbekistonda chakana savdo tovar aylanmasi **432,2** trln so‘mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **19,7** foizga oshdi. Yirik korxonalarning tovar aylanmasi **76,8** trln so‘mni (real hisobda o‘sish sur’ati – **112,3** %), kichik tadbirkorlik subyektlariniki esa **355,4** trln so‘mni (real hisobda o‘sish sur’ati – **120,4** %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’atlari
2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (oylik)

[1] *2025–2026-yillarning yanvar–sentyabr oylariga oid statistik ma’lumotlar aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalarini inobatga olgan holda qayta baholangan.*

Yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo umumiy hajmidagi ulushi
2025-2026-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun, foizda



II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, ulgurji savdo sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **59 166** tani tashkil etgan bo‘lib, shundan **425** tasi yirik korxonalar, **58 741** tasi esa kichik korxonalar va mikrofirmalardir.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonda ulgurji tovar aylanmasi hajmi **511,8** trln so‘mga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **19,2** foizga oshdi.


Yirik korxonalarning ulgurji savdo aylanmasi **163** trln so‘mni (real hisobda o‘sish sur’ati – **155,1** %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo aylanmasi esa **348,7** trln so‘mni (real hisobda o‘sish sur’ati – **107,6** %) tashkil qildi. Respublikaning umumiy ulgurji savdo hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,1** %ga teng bo‘ldi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2025-2026-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun, mlrd so‘m



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o‘sish sur’atlari
2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda




Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ulgurji savdo hajmining o‘sish sur’ati (oylik)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko‘ra, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **30 888** tani tashkil etgan. Shulardan yirik korxonalar soni **148** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni esa **30 740** tani tashkil qilgan.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi **229,7** trln so‘mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **23,5** foizga oshdi. Bunda tovar aylanmasining **77,2** foizi kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, yirik korxonalarning ulushi **22,8** foizni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o‘sish sur’ati dinamikasi
2025-2026-yillar uchun, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan foizda



IV. Uslubiy tushuntirishlar

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda ulgurji va chakana savdo korxonalari va tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, “2008-yilgi milliy hisoblar tizimi (MHT-2008)”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008-y.), “Chakana savdo aylanmasini statistik kuzatish va uning fizik hajm indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” (MDH Statistika qo‘mitasi, 2011-y.) kabi xalqaro qo‘llanma va tavsiyalardan foydalanilgan.

Ulgurji va chakana savdo aylanmasi statistikasi norasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash natijalarini inobatga olgan holda hisoblanadi.

Ayrim hollarda yakuniy qiymat va qo‘shiluvchilar yig‘indisi o‘rtasidagi kichik farqlar ma’lumotlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)

Tayyorlash uchun mas’ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63.*
Elektron pochta: *info@stat.uz*
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1290)